МИНИСТЕРСТВО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ФЕРГАНСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ ОБЩЕСТВЕННОГО ЗДОРОВЬЯ
АКАДЕМИЯ НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЫ УЗБЕКИСТАНА

Народная медицина: прошлое и будущее

материалы международной научно-практической онлайн конференции с участием международных партнерских вузов



ФЕРГАНА-2021

tadqiqotchilar tomonidan isbotlangan. Shuvoq tarkibida seskviterpen laktonlari mavjud. Sitrinli shuvoqdan ajratib olingan γ-santonin uzoq vaqt davomida ushbu birikmalar guruhining yagona vakili sifatida ma'lum edi.

O'ttiz yildan ko'proq vaqt oldin, yangi antimalarial dorilarni izlash doirasida xitoylik olimlar bir yillik shuvoq (ermon, burgan) *Artemisiae annua*dan Qinghaosu yoki Artemizinin deb nomlangan seskviterpen lakton endoperoksidini ajratdilar. Artemizinin va uning hosilalari shundan beri bezgakni davolashda, ayniqsa artemizinin asosidagi kombinatsiyalangan terapiya (ACT) ko'rinishida eng muhim vositalarga aylandi.

Bugungi kunga kelib, artemizininning ko'plab hosilalari sintez qilindi va ularning biologik faolligi o'rganildi. Artemizinin hosilalarining antimalarial xususiyatlari ajralib turadi. Ammo so'nggi yillarda artemisinin saratonga qarshi xususiyatlari ham o'rganildi. Artemizininning saraton hujayralariga ta'sir qilish mexanizmi peroksid guruhining temir(III) ta'sirida atomar kislorodni hosil qilishi va natijada saraton hujayrasi yo'q qilinishi bilan tushintiriladi.

QOQIO'T (*TARAXACUM OFFICINALE*) O'SIMLIGI ILDIZINING HALQ TABOBATIDA QO'LLANILISHI.

Axmedova Z.Q, Rajabov A.Y

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

O'simlikning nomi. Qoqio't (gulqoqi,momaqaymoq)-*Taraxacum officinale.*
Qoqio't murakkabguldoshlar oilasiga kiradigan ko'p yillik,sut-shirali o't o'simlik. Ildizi kam shoxlangan o'q ildiz. Bargining hammasi ildizoldi to'p bargdan tashkil topgan. Bargi oddiy, barg plastinkasi lansetsimon, patsimon kesik bo'lib, asos qismiga tomon torayib boradi. Barg bo'laklarining uchi barg asosiga qarab yo'nalgan. Gul o'qi tuksiz, ichi kovak, silindrsimon, uzunligi 15-30 sm. Gllari savatchaga to'plangan. Savatchaning o'rama barglari ikki qator joylashgan, gullarining hammasi tilsimon. Gultojisi 5 tishli,tilla rangli. Mevasi uchma meva. May-iyul oylaridan tortib,to sovuq tushgunga qadar gullaydi.

Geografik tarqalishi. Qoqio't sovuq o'lkalar va cho'l zonalaridan tashqari,o'rmon,va cho'l hududlaridagi o'tloqlar,aholi istiqomat qiladigan joylarda,yo'llarning chetlarida bog'larda bedapoyalarda va ariq bo'ylarida o'sadi yoki maxsus o'stiriladi.

Mahsulot tayyorlash.O'simlikning ildizi yer ustki qismi bilan birga bahorda,gullashidan oldin yig'iladi.Faqat ildizi kech kuzda kovlab olinadi,so'ngra suv bilan yuvib,mayda ildizchalardan va ildiz bo'g'zidan tozalanadi.Tozalangan ildizdan sut-shira chiqish to'xtagunga qadar ildiz havoda quritiladi.So'ngra bir qavat qilib yoyib quritiladi.

Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Tayyor mahsulot ildizdan va alohida ildiz bilan birgalikda o'simliknig yer ustkiqismidan(barg va gul aralashmalaridan)tashkil topgan.Ildizi kam shoxlangan uzunasiga burishgan,mo'rt,yoshlarining ustki tomoni qo'ng'ir rangli.

Hidsiz,achchiq mazasi bor.

Mahsulotning mikroskopik tuzulishi. Sovuq yo'l bilan yumshatilgan ildizni glitserin va spirt aralashmasiga bir sutka solib qo'yib,keyin ko'ndalangiga va bo'yiga kesib preparat tayyorlanadi va mikroskop ostida ko'riladi.Ildiz ko'ndalang kesimida tashqi tomondan tashqi qobiq bilan qoplangan.uning ostida po'stloq parenximasi,so'ngra floema markazda esa ksilema joylashgan.Floema bilan ksilema o'rtasida kambiysi bor. Floemada elaksimon naylar hamda mayda guruh holida aylanma joylashgan yumaloq sut naylarini ko'rish mumkin.Tangental holda kesilgan preparatda esa sut naylar naycha shaklida shoxlanga va bir-biri bilan birlashgan holatda uchraydi.Sut naylari yod ta'sirida sariq-qo'ng'ir rangga,sudan eritmasi ta'sirida esa(biroz qizdirilgandan keyin)qizil rangga kiradi.

Kimyoviy tarkibi. Ildizi tarkibida taraksatsinlar va taraksatserinlarning achchiq glikozidlari,triterpen birikmalari,24%gacha inulin,kauchuk,yog' va boshqa moddalar bo'ladi.Gul to'p'lami bargi tarkibida karatinoidlar,triterpen,spirtlar hamda B2 bor.

Mahsulot tarkibida inulin borligi Molish reaksiyasi yordamida quyidagicha aniqlanadi:

Ildizdan kesib olingan bo'lakchaga *a*-naftol spirtdagi 20%li eritmasidan 2-3 tomchi va konsentrlangan sulfat kislotadan 1-2 tomchi tomizilsa,ildiz bo'lakchasi(inulin)binafsha rangga bo'yaladi.Agar *a*-naftol o'rnida rezorsin timolning spirtdagi 10%li eritmasi ishlatilsa,ildiz bo'lakchasi qizil rangga bo'yaladi. Qoqi o'tning to'pgullari bilan barglarida triterpek spirtlar, vitamin S va B12, shuningdek temir, kalsiy, ftor va boshqa moddalar bor. Ildizlaridan ham triterpek birikmalar – tarakseral, psevdotarakseral ajratib olingan. Bundan tashqari, qoqio't ildizlarida inullin, kauchik, achchiq glyukozid, shilimshiq moddalar, yog'li moy organik kislotalar bor. Ishlatiladigan organlari: ildizlari, ba'zida barglari bilan birga kavlab olinadigan ildizlari kuzda kavlab olinadi, barglari bilan ildizlari esa o'simlik gul chiqarmasidan ilgari bahorda yig'iladi. Ta'siri va ishlatilishi: Xalq tabobatida qoqi o'tdan ishtaha ochadigan achchiq dorilar tayyorlash uchun ko'proq foydalaniladi. Bundan tashqari, qoqi o't siydik va o't haydaydigan, terlatadigan, balg'am ko'chiradigan, ichni yumshatadigan hossalarga ega. Qoqio'tdan tayyorlanadigan galen preparatlardan kamqonlik, umuman quvvatsizlikda, nafas organlari kasalliklari, qandli diabetda, qorin damlab, qabziyat bo'lib yuradigan mahallarda, bavosil, sariq kasalligi, o't-tosh kasalligi va boshqalarda foydalaniladi. Ibn Sino qoqio'tning sutsimon shirasini jigar, taloq kasalliklari, istisqo davosiga ishlatgan, uni badanning so'gal toshgan, qadoq bo'lgan, ilon-chayon chaqqan joylariga surishni buyurgan. Chayon chaqqan joyga yangi qoqio'tni mayin qilib ezib, malham qilib qo'ysa ham bo'ladi. Zamonaviy tabobatda qoqio'tning ildizi damlama va kukun holida ishtaha ochish, o't haydash va ichni yumshatish uchun qo'llaniladi. Uni umumiy darmonsizlik va ko'krak og'rig'i mahallarida ham buyuriladi. Qoqio't preparatlari qondagi xolesterin miqdorini kamaytirishga yordam beradi, shuning uchun aterosklerozda ham foydali deb hisoblanadi.

Ishlatilishi.Qoqio't o'simligining dorivor preparatlari achchiq modda sifatida ishtaha ochish,ovqat hazm qilish jarayonini yaxshilash uchun hamda o't haydovchi vosita sifatida ishlatiladi.Farmaseftida qoqio'tning quyuq ekstrakti ziddi zahar tayyorlash uchun ishlatiladi.Bundan tashqari qoqio't qondagi xolesterin miqdorini normallashtirish, moddalar almashinuvini yaxshilash, asab va yurak-qon tomir faoliyatini yaxshilash uchun ishlatilganda yaxshi foyda beradi.

ANDIZ O'SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI VA TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI

Axmedova Z.Q., Ergashboyev J.
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Andiz (Inula) – qoqidoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'tlar turkumi. 100 ga yaqin turi bor. Andiz asosan Yevropa, Osiyo va Afrikada tarqalgan. O'zbekistonda 9 turi uchraydi. Bo'ydor Andiz (Qora Andiz– Inula helenium va Sariq Andiz– Inula grandis) turlari ko'proq tarqalgan. Bu turlarning poyalari baland bo'yli (1– 2,5 m), bir oz qirrali, tukdor; ildizpoyasi (tanasi) yo'g'on; barglari butun, cheti notekis, poyaning quyi qismida yirik (uzunligi 40–50 sm, eni 20–25 sm), yuqorisida esa maydaroq (uzunligi 10–30 sm, eni 3–12 sm); guli savatcha, gulbandi yo'g'on, chetdagi gullari urug'chili, o'rtadagilari esa ikki jinsli, sariq. Iyunning oxiridan sentabr oyigacha gullaydi. Adir va tog'larda 500–2000 m gacha balandlikda o'sadi. Qora andiz ildizpoyasi tarkibida 3% gacha efir moyi, 44% gacha inulin, saponin va boshqa moddalar bor. Saponin suvda hamda yog'da yaxshi eriydi. Saponinni sovunga qo'shiladi va sovunni ko'pirishini yaxshilaydi. Inulin (C6H10O5)n kraxmal kabi o'simliklarning zaxira oziq moddasi hisoblanadi. Inulin va uning analog sinistrini buyrak (buyrak) glomerular kapillyarlaridan Bowman kapsulasiga vaqt birligida filtrlangan suyuqlik hajmini tashkil etuvchi glomerular filtratsiya tezligini (GFR) aniqlash orqali buyrak faoliyatini o'lchashga yordam beradi. Inulini tibbiyotda siydik filtraksiyasini tesligini aniqlashda foydalinadi. Inulin qon plazmasi oqsillari bilan birikmaydi, buyrak koptokchalarida

СОДЕРЖАНИЕ

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЫ В УЗБЕКИСТАНЕ 4

А.А.Сидиков, И.Р.Аскаров, У.Т. Садиков, М.А Марупова 4

ALOE VERA O`SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI VA SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI 6

Abdulloev O.Sh.,.Asqarov I.R, Adxamova O.A. 6

BIOGEN STIMULYATORLAR 7

Abdulloyev O.Sh., Ibrohimov Sh. 7

XURMO (DIOSPYROS)NING KIMYOVIY TARKIBI DORIVOR XUSUSIYATLARI 8

Abdumutalova F.F, Islamova. M.Sh, Egamberdiyev B.Q, Yodgorov B.O 8

SCUTELLARIA L. (LAMIACEAE) TURKUMINING DORIVOR TURLARI 9

Akbarova M.X, Maxmudov V 9

MOYCHECHAK – MATRIGARIA BIOLOGIYASI VA DORIVORLIGI 11

Abdug'aniyeva Y.A, Murodov S.A. 11

KO`KAMARON TURLARINING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI 12

Akbarova M.X, Zohidov G`.G` 12

REPRESENTATION OF MEDICAL TERMS IN TRANSLATION OF MODERN PHRASEOLOGICAL UNITS 13

Aliyeva N.H. 13

XALQ TABOBATIDA BRONXIAL ASTMA 16

Aripov Asliddin Mahmudovich 16

BIR YILLIK SHUVOQNING KIMYOVIY TARKIBI VA SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI 17

Asqarov I.R., Abdulloyev O.Sh., Fozilova G.E. 17

QOQIO'T (*TARAXACUM OFFICINALE*) O'SIMLIGI ILDIZINING HALQ TABOBATIDA QO'LLANILISHI. 18

Axmedova Z.Q, Rajabov A.Y 18

ANDIZ O'SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI VA TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI

Axmedova Z.Q., Ergashboyev J. 19

ВИРУСЛИ ГЕПАТИТ "В" КАСАЛЛИГИНИ ХАЛҚ ТАБОБАТИ УСУЛЛАРИ БИЛАН ДАВОЛАШ 21

Абдуллаев М.Н., Асқаров И.Р., Мўминжонов М.М.. 21